XALQ DEPUTATLARI SHOVOT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 5-may VII-10-60-12-177-K/25 Shovot tumani

Shovot tumanihududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosi yuzasidan hamda tuman hokimining 2024-yil 6-dekabrdagi 196-12-177-F/24-sonli farmoyishiga asosan, Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Xorazm viloyati Shovot tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniga ko‘ra tumandagi shaharchalar va qishloqlarining umumiy perimetri 566660,74 metr umumiy maydoni 45550,24 gektar ekanligi aniqlandi.

Jumladan:

Shovot shahrchasi___umumiy perimetri 29182,01 metr, umumiy maydoni 831,46 gektar;

Ipakchi shaharchasi umumiy perimetri 7874,11 metr,umumiy maydoni 150,73 gektar;

Katqal’a shaharchasi umumiy perimetri 16355,12 metr, umumiy maydoni 225,75 gektar;

Bo‘yrachi shaharchasi umumiy perimetri 11899,85 metr,umumiy maydoni 185,62 gektar;

Monoq shahrchasi umumiy perimetri 12705,69 metr,umumiy maydoni 262,17 gektar;

Chig‘atoy shaharchasi umumiy perimetri 5808,86 metr,umumiy maydoni 99,63 gektar;

Qangli shaharchasi umumiy perimetri 11660,77 metr,umumiy maydoni 176,52 gektar;

Qangli qishlog‘i umumiy perimetri 35887,15 metr, umumiy maydoni 2885,27 gektar;

O‘zbekiston qishlog‘i umumiy perimetri 36754,83 metr, umumiy maydoni 5219,36 gektar;

Cho‘qli qishlog‘i umumiy perimetri 45713,67 metr,umumiy maydoni 2693,29 gektar;

Ijtimoiyat qishlog‘i umumiy perimetri 40247,37 metr, umumiy maydoni 3371,69 gektar;

Chig‘atoyqal’a qishlog‘i umumiy perimetri 58154,65 metr, umumiy maydoni 8196,99 gektar;

Shovotqal’a qishlog‘i umumiy perimetri 61294,09 metr,umumiy maydoni 3932,08 gektar;

Hurriyat qishlog‘i umumiy perimetri 44506,47 metr, umumiy maydoni 5951,38 gektar;

Qiyot qishlog‘i umumiy perimetri 40253,91 metr, umumiy maydoni 3473,23 gektar;

Beshmergan qishlog‘i umumiy perimetri 24297,37 metr, umumiy maydoni 1785,61 gektar;

Bo‘yrachi qishlog‘i umumiy perimetri 54654,18 metr, umumiy maydoni 3109,21 gektar;

Katqal‘a qishlog‘i umumiy perimetri 29410,64 metr, umumiy maydoni 3000,25 gektar;

Shovot tumani ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda shaharcha va qishloqlar chegaralari ajratib ko‘rsatilgan holda tavsiflandi. Chegaralar chizig‘ining yozuvli matni tavsifida joyning tegishli topografik elementlari bilan bog‘lanib, chegara nuqtalari o‘rtasidagi masofasi va chegara chizig‘ining qutb yo‘nalishlariaks ettirildi. Chegara chizig‘ining burilish nuqtalari koordinatalari ko‘rsatildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Davlat kadastrlar palatasining Shovot tumani filiali rahbarining axborotini tinglab, taqdim etilgan ma’lumotlar fikr va mulohazalarini hamda taklif va tavsiyalarini atroflicha o‘rganib chiqib, “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. Davlat kadastrlari palatasining Shovot tumani filiali rahbari Z.Ro‘zmetovning Shovot tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi axboroti hamda Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Shovot tumanidagi shaharchalar va qishloqlarning chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuman hokimligida tuzilgan ishchi guruh tarkibining 2025-yil 18-martdagi №-8316-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Shovot tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga hamda ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash bo‘yicha kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi matbuot xizmati (S.Yo‘ldashev)ga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida yoritilishini ta’minlasin.

4. Ushbu qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashidan so‘ralsin.

5. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining barcha o‘rinbosarlari hamda qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari raislari zimmalariga yuklatilsin.

Sessiya raisi  MASHARIPOV IZZAT MASHARIPOVICH

Xalq deputatlari Shovot tumani
Kengashining
2025-yil 5-maydagi
VII-10-60-12-177-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Shovot tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniy natijalari to‘g‘risida
M A ’ L U M O T

T/r	Ma’muriy-hududiy birliklarning nomi	Umumiy perimetr (metr)	Umumiy maydoni (gektar)
1	Shovot shaharchasi	29182,01	831,46
2	Ipakchi shaharchasi	7874,11	150,73
3	Katqal’a shaharchasi	16355,12	225,75
4	Bo‘yrachi shaharchasi	11899,85	185,62
5	Monoq shahrchasi	12705,69	262,17
6	Chig‘atoy shaharchasi	5808,86	99,63
7	Qangli shaharchasi	11660,77	176,52
8	Qangli qishlog‘i	35887,15	2885,27
9	O‘zbekiston qishlog‘i	36754,83	5219,36
10	Cho‘qli qishlog‘i	45713,67	2693,29
11	Ijtimoiyot qishlog‘i	40247,37	3371,69
12	Chig'atoyqal’a qishlog‘i	58154,65	8196,99
13	Shovotqal’a qishlog‘i	61294,09	3932,08
14	Hurriyat qishlog‘i	44506,47	5951,38
15	Qiyot qishlog‘i	40253,91	3473,23
16	Beshmergan qishlog‘i	24297,37	1785,61
17	Bo‘yrachi qishlog‘i	54654,18	3109,21
18	Katqal’a qishlog‘i	29410,64	3000,25
	Jami	**566660,74**	**45550,24**

Xalq deputatlari Shovot tumani
Kengashining
2025-yil 5-maydagi
VII-10-60-12-177-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Shovot tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining kartografik chizmasi

